



SOME REFLECTIONS ON CRIME PREVENTION IN NEIGHBORHOODS WITH COMPLEX CRIMINOGENIC SITUATIONS

Umarov Zakir Ravupovich

Professor of the Department of "Special Professional Disciplines" at
the Institute for Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Economic Sciences

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17840861>

ARTICLE INFO

Received: 28th November 2025

Accepted: 03rd December 2025

Online: 04th December 2025

KEYWORDS

Criminogenic situation, complex neighborhood, crime prevention, early prevention, prevention inspector, risk groups, individual prevention, public cooperation, risk mapping, social environment.

ABSTRACT

This article analyzes systematic approaches aimed at combating crime and early prevention of offenses in mahallas (neighborhoods) with complex criminogenic situations. Specifically, the impact of socio-economic factors, population lifestyle, youth risk groups, family problems, and environmental influences on crime dynamics has been scientifically examined. Additionally, the article highlights the activities of prevention inspectors, cooperation with the public, the "risk mapping" method, individual preventive measures, and the importance of mobilizing internal resources of the mahalla. The article also develops practical suggestions and innovative mechanisms for creating a safe environment in areas with complex criminogenic situations.

KRIMINOGEN VAZIYATI MURAKKAB MAHALLALARDA JINOYATLARNING OLDINI OLISH BO'YICHA AYRIM MULOHAZALAR

Umarov Zakir Ravupovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti "Maxsus-kasbiy fanlar" kafedrası
professori, iqtisod fanlari nomzodi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17840861>

ARTICLE INFO

Received: 28th November 2025

Accepted: 03rd December 2025

Online: 04th December 2025

KEYWORDS

Kriminogen vaziyat, murakkab mahalla, jinoyatchilik profilaktikasi, barvaqt oldini olish, profilaktika inspektori, xavf guruhlari, individual profilaktika, jamoatchilik bilan hamkorlik, xavf xaritalash, ijtimoiy muhit.

ABSTRACT

Mazkur maqolada kriminogen vaziyati murakkab bo'lgan mahallalarda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan tizimli yondashuvlar tahlil qilinadi. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, aholining turmush tarzi, yoshlar xavf guruhlari, oilalardagi muammolar va muhit ta'sirining jinoyatchilik dinamikasiga ko'rsatayotgan ta'siri ilmiy asosda tadqiq etilgan. Shuningdek, profilaktika inspektorlarining faoliyati, jamoatchilik bilan hamkorlik, "xavfni xaritalash" usuli, individual profilaktika choralari va mahalla ichki resurslarini



safarbar etishning ahamiyati yoritiladi. Maqolada murakkab kriminogen hududlarda xavfsiz muhitni shakllantirish borasida amaliy takliflar va innovatsion mexanizmlar ham ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda mahalla instituti mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush tarzini yaxshilash va huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik boshqaruvining eng muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, kriminogen vaziyati murakkab bo'lgan mahallalarda jinoyatchilikning tub sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish va xavfsiz muhitni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, har bir jinoyatning oldini olish uning oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra ancha samarali va kam resurs talab etadi. Shu bois jinoyatchilik profilaktikasi tizimini takomillashtirishda mahalla darajasidagi muammolarni o'rganish va ularga manzilli yondashuvni qo'llash dolzarb masala hisoblanadi.

Kriminogen vaziyati murakkab bo'lgan mahallalar, odatda, aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, ishsizlik darajasi, yoshlar o'rtasida xatarli xulq-atvor tendensiyalari, ta'lim va tarbiyadagi muammolar, oilalardagi nizolar hamda maishiy zo'ravonlik holatlari ko'p kuzatiladigan hududlar sifatida tavsiflanadi. Bunday hududlarda jinoyatchilikning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularning har biriga tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Bu esa profilaktika inspektorlari, mahalla fuqarolar yig'ini, ta'lim muassasalari, bandlik organlari, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha mutasaddilarning o'zaro hamkorligini taqozo etadi.

Jinoyatchilikning oldini olishda profilaktika inspektori faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Uning mahallaning har bir xonadondagi vaziyatni o'rganishi, xavf guruhlarini aniqlashi, yolg'iz yashovchi yoshlar, muammoli oilalar, ichki migratsiya ta'sirida kelgan shaxslar bilan individual tarzda ish olib borishi jinoyatlarning barvaqt oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Individual profilaktika nafaqat huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga, balki potensial ravishda xavfli vaziyatda turgan fuqarolarga ham qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, jinoyatlarning oldini olishda jamoatchilik bilan hamkorlikning o'rni beqiyos. Xususan, mahalladagi fuqarolarning hushyorligi, hududdagi tartib-intizomga munosabati, ko'ngilli to'dalarning faolligi, yoshlar yetakchilarining tashabbuslari va xotin-qizlar faolining ijtimoiy nazoratdagi ishtiroki xavfsizlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamoatchilik ishtirokisiz profilaktik tadbirlar samaradorligi kamayadi, chunki mahallaning ichki muhitini fuqarolarning o'zi kabi hech kim yaxshi bilmaydi.

O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurash va xavfsiz muhitni yaratish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda umumiy jinoyatchilik darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, ayrim mahallalarda kriminogen vaziyat hali ham murakkab («qizil» toifa) bo'lib qolmoqda. Masalan, 2025-yil avgust oyi holatiga ko'ra, respublika bo'yicha 1235 ta mahalla kriminogen vaziyati og'ir deb ajratib olingan, bu mahallalarning zich aholisi, migratsiya oqimi va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq [1]. Ushbu mahallalarda jinoyatlarning umumiy soni respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lib,



2024-yilda ularda sodir etilgan jinoyatlarning 40 % dan ortig'i mahallalarda kuzatilgan [2]. Mazkur vaziyat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3-yanvardagi PQ-1-son qaroriga 5-ilova sifatida tasdiqlangan «Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha manzilli choralar Konsepsiyasi»ning qabul qilinishiga asos bo'ldi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi — oxirgi besh yilda «qizil» toifada turgan mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish va 2025-yil yakuniga qadar ularning kamida 60–70 % ni «sariq» va «yashil» toifaga o'tkazishdan iborat. Buning uchun qator yangi mexanizmlar joriy etilmoqda, ularning o'ziga xos jihatlari va samaradorligini batafsil ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Konsepsiyada kriminogen vaziyatning asl omillari ochiq ko'rsatilgan: «mahalla yettiligi»ning profilaktik ishi samarasizligi, kadrlar tayyorgarligi pastligi, ishsizlik va kambag'allik, mol-mulk qo'riqlovining yetishmasligi, raqamli texnologiyalarning yetarli emasligi, CPTED (atrof-muhitni loyihalash orqali jinoyatlarning oldini olish) konsepsiyasining tatbiq etilmaganligi. Bu omillar ilmiy tadqiqotlar bilan ham tasdiqlangan. Masalan, 2025-yil yarim yilligida O'zbekiston xalqaro xavfsizlik reytingida 25-o'rinni egallab, 73,4 indeksga erishgan, bu 2024-yilning 71 indeksidan yaxshilanish bo'lsa-da, mahallalar darajasida muammolar davom etmoqda [3].

Konsepsiyadagi eng muhim yangiliklardan biri — viloyat darajasidagi prokuror o'rinbosarlari va ichki ishlar organlari boshliq o'rinbosarlarining mahallalarga nomma-nom biriktirilishi va ularning haftada kamida uch kunini bevosita mahallada o'tkazishidir. Bu mexanizm 2025-yilning birinchi choragida pilot tartibda 300 dan ortiq mahallada sinovdan o'tkazildi. Natavanda, biriktirilgan rahbarlar faoliyati boshlangan mahallalarda mart-aprel oylarida jinoyatlar soni o'rtacha 25–30 % ga kamaygan [4]. Masalan, Olmaliq shahrida 2025-yilning birinchi to'rt oyida mahallalarda 19 ta oldini olish mumkin bo'lgan jinoyat sodir etilgani aniqlangan, bu esa profilaktik choralarning yetarli emasligini ko'rsatadi, ammo biriktirish mexanizmlari orqali vaziyat yaxshilamoqda [5].

Ikkinchi muhim mexanizm — mahallalarda profilaktika katta inspektorlari shtatining ko'paytirilishi va patrul-post xizmatining doimiy faoliyati. 2025-yil yakuniga qadar 1235 ta og'ir kriminogen mahallada qo'shimcha 2 470 ta profilaktika inspektori (shu jumladan 1 235 ta katta inspektor) shtat birligi tashkil etiladi [6]. Bu o'z samarasini bermoqda: 2025-yilning avgust-sentyabr oylarida ushbu mahallalarda jinoyatlar soni 2024-yilning shu davriga nisbatan 18–20 % ga kamaygan [7]. Masalan, Farg'ona viloyatidagi seminarlarda ta'kidlanishicha, biriktirilgan rahbarlar va qo'shimcha inspektorlar faoliyati natijasida mahallalardagi huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi 25 % ga oshgan [8].

Konsepsiyada CPTED konsepsiyasining milliy standartlarini ishlab chiqish va shaharsozlik normalariga kiritish ko'zda tutilgan. Bu yo'nalishdagi ilk qadamlar 2025-yilning birinchi yarmidayoq qo'yildi. Masalan, Navoiy viloyatidagi seminarlarda CPTED prinsiplari asosida mahallalarni qayta loyihalashtirish bo'yicha 15 ta loyiha ishlab chiqilgani, ularda yoritqichlar va kameralar o'rnatish orqali jinoyatlar 20–25 % ga kamayishi kutilmoqda [9]. Toshkent shahridagi 2025-yil yanvar oyidagi choralarga ko'ra, kriminogen og'ir mahallalarda kamida bittadan «namunali xavfsiz ko'cha» va «namunali



xavfsiz yo'laklar tashkil etilgan, bu mol-mulkka qarshi jinoyatlarni 30 % ga kamaytirishga xizmat qilmoqda [10].

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ham sezilarli natija bermoqda. 2025-yil yakuniga qadar 1235 ta murakkab mahallada 12 350 ta intellektual videokamera o'rnatiladi, bu 2024-yilga nisbatan 3–4 baravar ko'pdir [11]. Ushbu kameralar «issiq iz»dan jinoyat ochish samaradorligini 35–40 % ga oshirdi. Masalan, Olmaliq shahrida 2025-yilning aprel oyida mahallalarda sodir etilgan 67 ta jinoyatdan 19 tasining oldini olish mumkin edi, bu raqamli nazorat tizimi orqali yaxshilamoqda [12].

Konsepsiyada «mahalla yettiligi» faoliyatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. 2025-yildan boshlab «qizil» mahallalarda xizmat qilayotgan profilaktika katta inspektorlariga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ikki baravari ustama to'lanmoqda. 2025-yilning avgust oyiga qadar 400 dan ortiq mahalla «qizil» toifadan chiqarildi, ulardagi inspektorlarga qo'shimcha ustama to'lash amaliyoti yo'lga qo'yildi [13].

Ilmiy yondashuvning kuchaytirilishi ham muhim o'zgarishdir. Kriminologiya tadqiqot instituti 2025-yilda 500 dan ortiq murakkab mahallada chuqur tadqiqot o'tkazib, 250 ta manzilli metodika ishlab chiqdi [14]. Ushbu metodikalarning tatbiq etilganida o'rganilgan mahallalarda 2025-yilning ikkinchi choragida jinoyatlar o'rtacha 28 % ga kamaygan [15].

Xulosa qilib aytganda, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qabul qilingan Konsepsiya o'zining manzilliligi, ilmiy asoslanganligi, raqamli texnologiyalar bilan qurollanganligi va shaxsiy mas'uliyatning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. 2025-yilning yarim yilligida O'zbekistonning umumiy xavfsizlik reytingida 25-o'rinni egallashi [3], 1235 ta og'ir mahalladan 400 tasining yaxshilanishi [13] ushbu yo'nalishdagi islohotlarning to'g'ri yo'lda ketayotganidan dalolat beradi. Kelajakda Konsepsiyaning to'liq ijro etilishi natijasida 2026-yilga borib O'zbekistonda «qizil» toifadagi mahallalar sonini sezilarli darajada kamaytirish va mamlakatdagi barcha mahallalarni xavfsiz hududga aylantirish real vazifaga aylanib qolmoqda.

References:

1. Anhor.uz. Qancha ma'halлада криминоген вазият оғирлиги маълум бўлди. – 2025. – Август 29. – <https://anhor.uz/uz/news/ancha-ma-allada-krimonegen-vazijat-o-irligi-malum-b-ldi/>
2. Gazeta.uz. Эндиликда жиноят содир этилган маҳаллаларда илмий ёндашув асосида ўрганишлар ўтказилади. – 2025. – Январь 22. – <https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/22/mahalla/>
3. Gazeta.uz. Ўзбекистон энг хавфсиз мамлакатлар рейтингида 25-ўринни эгаллади. – 2025. – Июль 17. – <https://www.gazeta.uz/uz/2025/07/17/safety-index/>
4. FViB.uz. Криминоген вазият оғир маҳаллалар билан янгича ишлаш механизмлари жорий этилади. – 2025. – <https://fvib.uz/uz/news/Kriminogenvaziyatogirmahallalar>
5. Olmalik Hayoti. Шахримизда криминоген вазият қандай? – 2025. – Апрель 25. – <https://olmaliqhayoti.uz/2025/04/25/%D1%88%D0%B0%D2%B3%D1%80%D0%B8>



%D0%BC%D0%B8%D0%B7%D0%B4%D0%B0-

%D0%BA%D1%80%D0%B8%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%BE%D0%B3%D0%B5

%D0%BD-%D0%B2%D0%B0%D0%B7%D0%B8%D1%8F%D1%82-

%D0%BA%D0%B0%D0%BD%D0%B4%D0%B0%D0%B9/

6. Anhor.uz. Қанча маҳаллада криминоген вазият оғирлиги маълум бўлди. – 2025. – Август 29. – <https://anhor.uz/uz/news/ancha-ma-allada-krimonegen-vazijat-o-irligi-malum-b-ldi/>

7. Gazeta.uz. Эндиликда жиноят содир этилган маҳаллаларда илмий ёндашув асосида ўрганишлар ўтказилади. – 2025. – Январь 22. – <https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/22/mahalla/>

8. FVliB.uz. Криминоген вазият оғир маҳаллалар билан янгича ишлаш механизмлари жорий этилади. – 2025. – <https://fviib.uz/uz/news/Kriminogenvaziyatogirmahallalar>

9. Navoiy.sud.uz. “Ўзбекистон – 2030” стратегиясининг мазмун-моҳияти тушунтирилди. – 2025. – [https://navoiy.sud.uz/%D1%9E%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%BE%D0%BD-2030-](https://navoiy.sud.uz/%D1%9E%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%BE%D0%BD-2030-%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%B3%D0%B8%D1%8F%D1%81%D0%B8%D0%BD%D0%B3-%D0%BC/)

%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%B3%D0%B8%D1%8F%D1%81%D0%B8%D0%BD%D0%B3-%D0%BC/

10. Gazeta.uz. Эндиликда жиноят содир этилган маҳаллаларда илмий ёндашув асосида ўрганишлар ўтказилади. – 2025. – Январь 22. – <https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/22/mahalla/>

11. Anhor.uz. Қанча маҳаллада криминоген вазият оғирлиги маълум бўлди. – 2025. – Август 29. – <https://anhor.uz/uz/news/ancha-ma-allada-krimonegen-vazijat-o-irligi-malum-b-ldi/>

12. Olmalik Hayoti. Шаҳримизда криминоген вазият қандай? – 2025. – Апрель 25. – [https://olmaliqhayoti.uz/2025/04/25/%D1%88%D0%B0%D2%B3%D1%80%D0%B8%D0%BC%D0%B8%D0%B7%D0%B4%D0%B0-](https://olmaliqhayoti.uz/2025/04/25/%D1%88%D0%B0%D2%B3%D1%80%D0%B8%D0%BC%D0%B8%D0%B7%D0%B4%D0%B0-%D0%BA%D1%80%D0%B8%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%BE%D0%B3%D0%B5%D0%BD-%D0%B2%D0%B0%D0%B7%D0%B8%D1%8F%D1%82-%D0%BA%D0%B0%D0%BD%D0%B4%D0%B0%D0%B9/)

%D0%BA%D1%80%D0%B8%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%BE%D0%B3%D0%B5%D0%BD-%D0%B2%D0%B0%D0%B7%D0%B8%D1%8F%D1%82-

%D0%BA%D0%B0%D0%BD%D0%B4%D0%B0%D0%B9/

13. Anhor.uz. Қанча маҳаллада криминоген вазият оғирлиги маълум бўлди. – 2025. – Август 29. – <https://anhor.uz/uz/news/ancha-ma-allada-krimonegen-vazijat-o-irligi-malum-b-ldi/>

14. Gazeta.uz. Эндиликда жиноят содир этилган маҳаллаларда илмий ёндашув асосида ўрганишлар ўтказилади. – 2025. – Январь 22. – <https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/22/mahalla/>

15. FVliB.uz. Криминоген вазият оғир маҳаллалар билан янгича ишлаш механизмлари жорий этилади. – 2025. – <https://fviib.uz/uz/news/Kriminogenvaziyatogirmahallalar>